



## LEXICOLOGY OF THE UZBEK LANGUAGE AS AN EXAMPLE OF THE ANALYSIS OF IQBOL MIRZA'S NOVEL "BONU"

Raxmonqulova Sarvinoz Shavkat qizi

Student of the Samarkand State Institute of Foreign Languages

sraxmonqulova724@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11213199>

### ARTICLE INFO

Received: 10<sup>th</sup> May 2024

Accepted: 17<sup>th</sup> May 2024

Online: 18<sup>th</sup> May 2024

### KEYWORDS

Lexicology, metaphor,  
metonymy, synecdoche,  
function, homonym,  
synonym, antonym,  
paronym.

### ABSTRACT

*This article talks about the branch of lexicology of linguistics and lexical meaning and its types, types of transfer of meaning such as metaphor, metonymy, synecdoche and function, types of words according to their semantic relationship (synonym, antonym, homonym and paronym) are analyzed based on some examples from Iqbal Mirza's novel "Bonu".*

## ЛЕКСИКОЛОГИЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА КАК ПРИМЕР АНАЛИЗА РОМАНА ИКБОЛА МИРЗЫ "БОНУ"

Raxmonqulova Sarvinoz Shavkat qizi

Студентка Самаркандского государственного института иностранных языков

sraxmonqulova724@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11213199>

### ARTICLE INFO

Received: 10<sup>th</sup> May 2024

Accepted: 17<sup>th</sup> May 2024

Online: 18<sup>th</sup> May 2024

### KEYWORDS

Лексикология,  
метафора, метонимия,  
синекдоха, функция,  
омонимы, синонимы,  
антонимы, паронимы.

### ABSTRACT

*В данной статье говорится о разделе лексикологии языкознания и лексическом значении и его видах, типах передачи значения, таких как метафора, метонимия, синекдоха и функция, типах слов по смысловым отношениям (синоним, антоним, омоним и пароним). анализируется на основе некоторых примеров из романа Икбала Мирзы «Бону».*

## O'ZBEK TILI LEKSIKOLOGIYASI IQBOL MIRZONING "BONU" ROMANI TAHLILI MISOLIDA

Raxmonqulova Sarvinoz Shavkat qizi

Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

sraxmonqulova724@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11213199>

### ARTICLE INFO

### ABSTRACT



Received: 10<sup>th</sup> May 2024

Accepted: 17<sup>th</sup> May 2024

Online: 18<sup>th</sup> May 2024

## KEYWORDS

Leksikologiya, metafora,  
metonimiya, sinekdoxa,  
vazifadoshlik, omonimlar,  
sinonimlar, antonimlar,  
paronimlar.

*Ushbu maqolada tilshunoslikning leksikologiya bo'limi haqida so'z yuritiladi va leksik ma'no va uning turlari, metafora, metonimiya, sinekdoxa va vazifadoshlik kabi ma'no ko'chish turlari, so'zlarning ma'no munosabatlariga ko'ra turlari (sinonim, antonim, omonim va paronim) Iqbol Mirzoning "Bonu" romanidan keltirilgan ba'zi misollar asosida tahlil qilinadi.*

**Kirish:** So'nggi yillarda eksperimental fonetikaning yuzaga kelishi o'zbek tilshunosligi taraqqiyotining qonuniy natijasi. O'zbek tili leksikologiyasi va frazeologiyasi ham alohida soha sifatida shakllandi. O'zbek tili leksikologiyasi va frazeologiyasining rivojlanishida S.Ibrohimov, F.Kamolov, O.Usmonov, S.Usmonov, Sh.Rahmatullayev kabi tilshunoslarning xizmati katta. 1980-yilda nashr qilingan "O'zbek tili leksikologiyasi" nomli asar bu boradagi so'nggi yutuqlarni umumlashtirdi [3,32].

Leksikologiya so'z va uning lug'aviy ma'nosi haqidagi bo'lim. So'z va uning lug'aviy ma'nosi bilan bog'liq hodisalar: o'z ma'no va ko'chma ma'no, bir ma'nolilik va ko'p ma'nolilik, so'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari (sinonim, omonim, antonim, paronim) leksikologiyada o'rganiladi [4,88].

Leksikologiya barcha tillarning lug'at boyligi taraqqiyotiga xos umumnazariy masalalar bilan birga, ayrim olingan bir tilning lug'at boyligi masalalari bilan ham shug'ullanadi. Shunga ko'ra u dastlab ikki turga – umumiy leksikologiya va xususiy leksikologiyaga bo'linadi.

1. Umumiy leksikologiyada barcha tillarning lug'at tarkibi taraqqiyotini belgilovchi qonuniyatlar ko'riladi: til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur munosabatlarining lug'at tarkibiga ta'siri, buning lug'at tarkibida ma'lum o'zgarishlarga olib kelishi, lug'aviy birliklarning zamoniylilik, tarixiylik, ekspressiv-stilistik jihatdan qatlamlanishi, ma'lum tematik va leksik-semantik guruhlariga uyushishi kabi jarayonlar barcha tillarga xosdir.

2. Xususiy leksikologiyada muayyan bir tilning lug'at boyligi o'rganiladi: o'zbek tili leksikologiyasi, rus tili leksikologiyasi, nemis tili leksikologiyasi kabi. Xususiy leksikologiya muayyan bir tilning lug'at boyligini tadqiq qilishda umumiy leksikologiya tajribalari va xulosalariga tayanadi [3,126].

### Leksik ma'no va uning turlari

So'zlarning leksik ma'nosi to'g'risida gap borganda, dastlab ularning tildagi ma'nolari bilan nutqdagi ma'nolarini farqlash zarur.

Shunday qilib, so'zlarning tildagi ma'nosi ularning nutqdagi ma'nosidan farq qilishi mumkin. So'zlarning tildagi ma'nosi doimiy barqaror bo'lsa, nutqdagi ma'nosi o'zgaruvchan beqaror bo'lib, mavzu bilan uzviy bog'langan bo'ladi [2,105].

Leksik ma'no 4 guruhga bo'lib o'rganiladi. Ular:

1.**Atash ma'nosi.** So'zlarning tildagi asosiy vazifasi narsa va hodisalarni atashdir. Atash ma'nosiga ega bo'lgan so'zlar eshitilganda, kishi ko'z o'ngida atalayotgan narsa gavdalanadi [2,105]. Masalan,



Dasturxonga men uydan olib kelgan **qovun, shaftoli, uzum va non** qo'yildi [5,131]. Ushbu gapdagi ajratib ko'rsatilgan so'zlar atash ma'noga misol bo'la oladi.

**2.Ko'rsatish ma'nosi.** Hamma so'zlar ham atash ma'nosiga ega emas. Ayrim so'zlar faqat narsa va hodisalarni ko'rsatishga xizmat qiladi [2,106]. Misol uchun,

Ammo xayolimga kelgan istihola **shuki**, aynan **mana shu** mulohazani Olmos ham ko'nglidan o'tkazib, Tangrining inoyatidan masrur bo'lib, to'rt muchasi sog' jufti halolini bag'riga bosib, qayta-qayta shukronalar keltirmasmikan [5,119]? O'zbek tilida olmosh so'z turkumi atash ma'nosiga ega emas va undan narsa va hodisalarni ko'rsatish uchun foydalanamiz. Yuqoridagi gapda keltirilgan shu, mana shu kabi olmoshlar bunga misol bo'ladi.

**3.To'g'ri ma'no.** Bu ma'no bevosita atalayotgan narsa va hodisani bildiradi [2,106].

Men qaydagi chiroyli **daraxtlarni, gullarni, qushlarni, kapalaklarni** ko'rsam sizni so'rab-so'rab kelaverdim [5,19]. Ushbu gapdagi ajratib ko'rsatilgan leksemalar to'g'ri ma'noga misol bo'la oladi.

**4.Ko'chma ma'no.** Har qanday so'zning ma'nosi bir nechta kichik ma'nolar (semalar)dan tashkil topadi [2,106]. Masalan,

Shu vaziyatda nima qilishim kerak? Nima qila olaman? Bu urg'ochi **ayiqqa** kuchim yetmasligi aniq. Mabodo biror narsa bilan urib yiqitsam, kimdir ko'rsa, qamalib ketishim ham hech gapmas [5,222]. Ayiq so'zi paxmoq yungli, beso'naqay, katta, sut emizuvchi, yovvoyi, yirtqich kabi semalardan tashkil topgan. Yuqorida keltirilgan gaplardan ma'lumki, bu so'z hayvon ma'nosida emas, balki insonga nisbatan uning yirtqich yoki yovvoyi tabiatga ega ekanligini ko'rsatish uchun qo'llanilgan. Bu so'zni ko'chma ma'noda ishlatishdir. Bu hodisa o'z ichiga metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksiyadoshlikni oladi [2,106].

**Metafora.** Ikki narsaning bir-biriga o'xshashligi asosida bir so'z bilan ikkinchisini atash istiora deyilib, u so'z ma'nosini kuchaytirishga xizmat qiladi. Narsa o'z xususiyat, shakl, harakat, rang, hid, hajm va shu kabi biron belgisiga ko'ra boshqa shu xususiyatlarga ega bo'lgan narsaning nomini oladi [2,106]. Biz metaforani quyidagi xususiyatlariga asoslanib hosil qilamiz:

a) odam tanasi a'zolari:

1.Bir bo'lak tilni **og'zim**ga solib uzo-oq chaynab, zo'rg'a yutdim [5,230].

2.Zarb shunday maromda bo'lishi talab etiladiki, **danak og'zi** "qirs" etgan qisqa tovush bilan nimtabassum yorilishiga erishish lozim [5,121]. Yuqorida keltirilgan birinchi gapda og'iz so'zi o'z ma'nosida qo'llanilgan, ammo ikkinchi gapda bu so'z danak so'zi bilan birikib, bosh ma'no unutilib, hosila ma'noga ega bo'lmoqda. Va bu metaforani hosil qilyapti.

b) kiyimlar va ularning biror qismi:

1.Akam ikkimiz aravadan sakrab tushib, men **etagim**ga, akam cho'ntagiga yo'l yoqalaridagi shag'allardan yig'ib-terib, g'aflatda yotgan Azamatni toshbo'ron qila ketdik [5,48].

2.**Hovli etagidagi** hammomga kirib borki g'uborlarimdan xalos bo'layin deb uzoq cho'mildim [5,226]. Ushbu gaplarda biz etak so'zining o'z va ko'chma ma'nolarini ko'rib chiqamiz. Birinchi gapda etak so'zi kiyimning pastki, osilib tushib turadigan keng qismi ma'nosida (bosh ma'no) ishlatilgan. Ikkinchi gapda esa bu so'z ko'chma ma'noda, ya'ni **quyi qism** ma'nosini (hosila ma'no) ifodalash uchun qo'llanilgan.



d) shakl o'xshashligi:

1.Yulduzlar shu'lasidan charag'on osmonga qarab hayot qanday go'zal, yashash qanday yaxshi, deb hayqirgning keladi va ayni payt ko'zlaringga **marjonday yirik yoshlar** yig'iladi [5,18].

2.Direktor xonasiga kirsam, ikkita **xirsdan polis** nimalarnidir yozib o'tiribdi [5,165]. Yuqoridagi gaplarda shakl o'xshashligi jihatidan metafora hosil qilinmoqda. Birinchi gapda ko'z yoshlar yirikligi, kattaligi jihatidan marjonga (qimmatbaho buyum, taqinchoq) qiyoslanyapti. Ikkinchi gapda esa polis, ya'ni militsionerlar vazni, kattaligi, beso'naqayligi kabi ayiqqa xos bo'lgan sifatleri borligi uchun unga o'xshatilmoqda. Ba'zi holatlarda ayiq so'zi qo'pol kishilarni ifodalash uchun ham ishlatiladi. Bunday holatlarda bu metaforaning shakl o'xshashligiga emas, balki belgi o'xshashligi jihatidan ma'no ko'chish turiga kiradi.

e) tovush o'xshashligi:

1.Uzoqroqda turgan ahli ayol o'rtasida "Zavjasi ekan, darrov xabar topibdi, balki, xudo ko'ngliga solib, ko'rgani kelayotganmikan", degan **shivir-shivir** boshlandi [5,87].

2.Ammo vaqtiki yetib umid yana uyg'onadi, sahro osmonida beg'am suzgan uvada bulutlar qorniga zarrin nurlar qadalib, yana hayot boshlanadi, qushlar tilga kiradi, qumga quloq bossang, yer ostidagi **ildizlar shivirini** ilg'ay boshlaysan [5,82]. Bilamizki, shivirlamoq leksemasi jonsiz narsalarga nisbatan qo'llanilmaydi. Birinchi gapda shivir so'zi pichirlab gapirish ma'nosida (o'z ma'no) qo'llanilgan. Ikkinchi gapda esa bu so'z jonsiz narsaga nisbatan qo'llanilib, metafora ma'no ko'chish turini hosil qilgan.

f) belgi o'xshashligi:

1.Ahvolimni ko'rgan Shakarxon opa hali **achchiq qahva** damlab beradi, hali borib yuzimni sovuq suvda yuvib kelishni buyuradi [5,129].

2.Xonamga tushib bosh og'rig'iga qarshi **achchiq choy** damlab, bosib-bosib ikki piyola ichdim [5,171].

3.Men bir **achchiq gap** aytib tezroq xumordan chiqish uchun akamning ortidan yugurdim [5,50]

4.Qarang, bunday **achchiq tanbeh** aytish uchun shoir qancha aziyat chekkan ekan-a [5,116]! Yuqorida keltirilgan birinchi va ikkinchi gaplarda achchiq leksemasi maza-ta'mga nisbatan ishlatilgan bo'lib, bu uning o'z ma'nosi hisoblanadi. Lekin uchinchi va to'rtinchi gaplarda bu so'z gap, tanbeh so'zlari bilan birikib, **kishiga qattiq tegadigan, ko'ngilga ozor beradigan** kabi ko'chma ma'nolarni hosil qilish uchun ishlatilmoqda. Bundan tashqari biz **achchiq** so'zini quyidagi ko'chma ma'nolarni hosil qilish uchun ham ishlatamiz: **achchiq gaz, achchiq hid** (sezgi a'zolariga qattiq ta'sir qiladigan); **achchiq shamol, achchiq sovuq** (jazillatadigan, jonni achitadigan); **achchiq ko'z yosh, achchiq qismat** (g'amli, iztirobli, alamli); **turmushning achchiqlari** (qiyinchiliklari, mashaqqatlari); **achchiq ustida** (jahl qo'zg'agan paytda); **jon achchig'ida** (jon-jahdi bilan).

g) harakat o'xshashligi:

1.- **Sochingizni** boshqa **qirqmang**, ayolning yarim husni sochida bo'ladi, - degan edi [5,78].

2.- Unda o'zingni **maoshingdan qirqib**, hissa chiqarib olaman, - deb tumtaydi direktor, - qarorim shu [5,112]!



3. Har bitta gunohing bitta **rizqing rishtasini qirqadi** [5,200].

4. Nihoyat horib-tolib tashlandiq quduq yoniga yetib kelib qarasa, terskay tarafda yovvoyi **qovoq o'sib yotganmish** [5,100].

5. Masalan, maktabimiz qo'lga kiritayotgan yutuqlarni ozgina oshirib ko'rsatsak, eshitgan o'quvchining **g'ururi o'sadimi** [5,110]?

6. O'sha payt Olmos meni qidiribdi, telefonim daragini topibdi deb **ko'nglim o'sibdi-yu**, yangi raqamimni Shoira opamdan boshqa hech kim bilmasligini o'ylamabman [5,79]. Mazkur gaplarda qirqmoq va o'smoq leksemalari o'z va ko'chma ma'noda qo'llangan holatlari keltirilgan. Qirqmoq fe'li soch so'zi bilan birikib **kesmoq** ma'nosida qo'llanilishi o'z ma'no hisoblanadi, lekin biz uni **kamaytirmoq, qisqartirmoq** ma'nosida qo'llasak, ko'chma ma'no hosil bo'ladi. O'smoq leksemasining ham o'simlik yoki insonga nisbatan (bo'yi o'smoq) ishlatilishi bu uning bosh ma'nosidir. Agar **ko'tarilmoq, oshmoq, ortmoq** ma'nolarida qo'llanilsa, bunda u ko'chma ma'noga ega bo'ladi.

**Metonimiya.** Narsa va hodisalarning makon yoki zamondagi o'zaro doimiy bog'lanishi asosida birining nomini boshqasiga ko'chirish metonimiya hodisasi deyiladi. Agar metaforada bir predmet bilan ikkinchisi o'rtasida ma'lum xususiyatlarga asoslangan o'xshashlik bo'lsa, metonimiyada ikki predmet o'rtasida doimiy aloqaning mavjudligi sababli biri aytilganda, ikkinchisini tushunish imkonini beradi [2,107].

1. "Ilkin chekib..." Bu **Lutfiydanmi** yo **Ogahiydanmidi**? Ko'proq **Navoiyga** tortyapti [5,224]. Ushbu gapda metonimiya muallif va u yaratgan asarlar o'rtasidagi aloqadorlik yuzasidan hosil qilingan. Navoiyga tortyapti deganimizda, shaxs emas, balki uning ijodi nazarda tutiladi.

2. Lora **"Barbi"lar** orasida o'zicha qo'g'irchoq taxlit o'tirib oladi, men uni "taniyolmay", goh unisiga, goh bunisiga gapirib, quchoqlab ko'raman [5,247]. Bu gapda ham Barbi deyilganda, qiz bolaning ismi emas, balki shu nomdagi qo'g'irchoqni tushunamiz.

3. Sakkizinchi **"B"da** o'qiydigan Olimjon Suyarov degan og'irkarvon bola o'zi to'qigan "Ustoz" nomli she'rini radiomiz to'lqinlari orqali taratdi-yu butun maktab shoirga aylandi-qoldi [5,109]. Ushbu gapda "B" deyilganda, harf emas, "B" sinf nazarda tutiladi.

**Sinekdoxa** (gr. synekdoche – "nisbatlash") yo'li bilan hosil qilingan ko'chma ma'no deganda, biror narsaning nomi bilan uning biror qismini atash va, aksincha, biror narsaning qismi bilan u mansub butunni atash tushuniladi [3,203].

1. **Oqsoqollar** oldida hijolatpazligim tarqamay turib maktabda yagona xalq maorifi a'lochisi ham "qora ro'yxat"ga tushdi [5,111].

2. Zargarlarga soting, yoningizda ukangizmi, biror **jigaringiz** bo'lsin [5,257]. Ushbu gaplarda oqsoqol so'zi orqali soch-soqoli oqargan keksa odam, jigar so'zi orqali yaqin qarindosh, eng yaqin kishi ma'nosi nazarda tutiladi. Ya'ni qism orqali butun ifodalanmoqda.

**Vazifadoshlik** – semema vujudga kelishining asosiy yo'llaridan biri. Vazifadoshlik asosida semema vujudga kelishi ham, metaforada bo'lgani kabi, o'xshashlikka asoslanadi. Biroq metaforada tashqi ko'rinishdagi o'xshashlikka asoslanilsa, vazifadoshlikda bajariladigan vazifaning o'xshashligi asosida yangi ma'no vujudga keladi [3,205].

1. Jinnimisan, shaytonmisan, astag'firulloh, astag'firulloh! – deb yuzimga **qo'lchiroq** tutib turibdi [5,74].



2. Ammo o'zing xaridor bo'lib kirsang, do'konning shift **chiroqlariyam** boshqacharoq ko'rinarkan [5,273].

3. **Chiroqlari** ko'zimni qamashtirib bir mashina g'izillab o'tdi-yu tez orqaga qaytdi [5,212]. Uchala gapda ham qatnashgan **chiroq** leksemasi vazifa jihatdan yoritish vazifasini bajaradi, faqat ularning bir-biridan farqi shuki, ularning tashqi ko'rinishi o'xshash bo'lmaydi. Vazifadoshlikni hosil qilish uchun 3 shart talab qilinadi. Ular:

- a) nomi bir xil bo'lishi: chiroq
- b) vazifasi bir xil bo'lishi: yoritish
- d) shakli har xil bo'lishi: lampochka, fonus.

### Leksik ma'noning kengayishi va torayishi

Ma'lumki, so'zning leksik ma'nosi muntazam o'zgarib turadi va aytib o'tilganidek, u bir qancha mayda ma'nolar - semalardan tashkil topadi. Ana shu semalardan birining tushib qolishi yoki ba'zilarining rivojlanib, boshqa semalarga nisbatan yetakchi vazifani o'tay boshlashi mumkin. Shuningdek, so'zdagi dastlabki ayrim semalar neytrallashib, tushib qolishi ham mumkin. So'z ma'nosining rivojlanishi sifat va miqdor o'zgarishiga, ma'noning kengayishi va torayishiga, hattoki tildan umuman tushib qolishiga olib keladi [2,108].

1. Oshxo'rlar orqavartodan vaysab-vaysab, xo'jayin to'xtagan zahoti damlari ichiga tushib, **maydonni** supurishga tushdi [5,197].

2. **Sport maydonchasidagi** o'rindiqlarning biriga borib o'tirdik [5,67].

3. Atrofi taxta bilan o'ralgan **qurilish maydoni** qishgarchilik tufayli huvillab yotibdi [5,196]. Ushbu gaplarda qo'llanilgan maydon leksemasi oldin ochiq yer, sayhonlik ma'nolarida qo'llanilgan va hozirga kelib bu so'z sport, qurilish, futbol, Mustaqillik so'zlari bilan aloqaga kirishadigan bo'ldi. Bu leksik ma'noning kengayishiga misol bo'la oladi.

4. Dilbarning chakagi **tikuv moshinday** tinmasdi [5,190].

5. Nihoyat bir yantoqzorga yetganda **mashina** bir siltanib to'xtadi [5,33]. Mashina leksemasi avtomobil ma'nosida ishlatilganda, uning ma'nosi torayadi. Lekin uni kir yuvadigan mashina, tikuv mashinasi, bug' mashinasi kabi ma'nolarda qo'llashimiz bu uning leksik ma'nosini kengayishiga xizmat qiladi.

### So'zlarning ma'no munosabatlariga ko'ra turlari

So'zlar ma'no munosabatlariga ko'ra 4 guruhga bo'linadi. Ular: sinonimlar, omonimlar, antonimlar va paronimlar.

**Sinonimlar** – bir xil yoki bir-biriga yaqin ma'noga ega bo'lgan so'zlar. Sinonimlar bir so'z turkumi doirasida hosil bo'ladi. Masalan,

1. Sezdimki, endi menga **osmon** begona, endi faqat tushlarimda uchishim mumkin [5,78].

2. Ruhim esa **samolarda** nurlarga chulg'anib parvoz qilib yurardi [5,25].

3. Biz o'z holimizcha vositasiz **falakka** ko'tarila olmaganimizdek, o'lmay turib zamin bag'riga ham butkul kirolmaymiz [5,10].

4. Ana shunday ertaknamo oqshomlardan birida **ko'kdan** yulduz tushganday u paydo bo'ldi [5,18].

5. Chunki ruhim **fazoda** bo'ldi, vujudim yerdan jilmadi, boshim sajdada bo'ldi, jismim dunyodan uzilmadi [5,86]. Ushbu gaplardagi osmon, samo, falak, ko'k, fazo kabi so'zlar



sinonimlar hisoblanib, ular sinonimik qatorni hosil qiladi. Bu sinonimik qatordagi dominanta soʻz osmon leksemasidir. Chunki u betaraf maʼnoli soʻz hisoblanadi.

Sinonimlar bir narsa yoki hodisaning har xil belgilarini nazarda tutib ifodalashi tufayli doimo ham biri oʻrnida ikkinchisini qoʻllab boʻlmaydi, qoʻllangan taqdirda ham ularning maʼnolari bir-biriga aynan toʻgʻri kelmaydi [2,109].

**Omonimlar** – yozilishi va oʻqilishi bir xil, maʼnosi har xil boʻlgan leksemalar. Omonimlar bir soʻz turkumi doirasida ham, turli soʻz turkumi doirasida ham hosil boʻlishi mumkin. Jumladan,

1.Qadim zamonda bir donishmandning shogirdi daryodan suv olib qaytayotsa, **ot** choptirib kelayotgan askar uning koʻzasini bir qamchi urib sindirib, oʻzi sohilda qoʻnib, otini sugʻora boshlabdi [5,209].

2.Uning bor-yoʻq “beadabligi” – hali tugʻilmagan bolalarimizga ism tanlagan edi: bir oʻgʻil, bir qiz boʻlar, oʻgʻil unga, qiz menga oʻxshar, bolaga Oʻktam deb, qizaloqqa Sevinch deb **ot** qoʻyardi [5,31]. Ushbu gaplardagi ot leksemasi omonim boʻlib, biri hayvon, biri ism maʼnosida qoʻllanilgan. Bu omonimlar bir soʻz turkumi doirasida, yaʼni ot soʻz turkumi doirasida hosil boʻlgan.

3.Yoshni nima ahamiyati **bor**, nafas olsa boʻldi-da, – deb ikki hatlab yoʻlimni toʻsib, chiroqni oʻchirdi [5,207].

4.Koʻpni koʻrgan donishmand: “**Bor**, hech boʻlmaganda achchiq soʻz aytib, alamingni toʻkib kel”,deb yana joʻnatibdi [5,209]. Ushbu gaplarda bor soʻzining omonimligini koʻrishimiz mumkin. Birinchi gapdagi bor soʻzi modal soʻz, ikkinchi gapdagi bor leksemasi feʼlning ikkinchi shaxs buyruq mayli shakli boʻlib, ular turli soʻz turkumi doirasida omonimlikni hosil qilgan.

**Omofonlar** – bir xil talaffuzga, lekin har xil yozilishga ega boʻlgan soʻzlar [1,163]. Masalan,

1.Oldimda **toʻrt** opam va bir akam bor, men kenjatoy, “dadasining erkasi” edim [5,10].

2.Ikki xil salat, meva-cheva, **tort**, pitssa, shokolad va yana... Shampan vinosi [5,180]. Ushbu gaplarda qoʻllanilgan toʻrt va tort soʻzlari bir xil talaffuzga ega boʻlganligi uchun ular omofonlar hisoblanadi.

**Omograflar** – bir xil yozilishga, lekin har xil talaffuzga va maʼnoga ega boʻlgan soʻzlar [1,163].

1.Obbo, chap tomondan turdimi, bu **qargʻa**, nima balo, buncha avzoyi buzuq, sezib qoldimikan deb koʻnglimdan oʻtkazdim [5,236].

2.Onam ostonaga oʻtirib yigʻlagancha mushtumzoʻrlarni **qargʻadi** [5,47]. Yuqorida keltirilgan gaplarda qargʻa (ot soʻz turkumi, qush) va qargʻamoq feʼlining ikkinchi shaxs buyruq mayli shakli (qargʻa) omograf boʻla oladi. Chunki ular urgʻusi bilan farq qiladi. Ular urgʻusiz yozilgandagina omograflar sanaladi. Urgʻu belgisi qoʻyilganda ular omograf hisoblanmaydi.

**Antonim** atamasi yunoncha soʻzdan olingan boʻlib, u “qarama-qarshi nom”, “zid nom” degan maʼnolarni bildiradi. Demak, **antonimlar** tillardagi qarama-qarshi maʼnoni anglatuvchi soʻzlardir [2,112].



1. Bir hafta yonida bo'ldim, ko'nglini olishga urindim, **ozroq** pul bilan ro'zg'origa ko'maklashdim [5,155].

2. Har safar akangni oldiga borishga bir milliondan **ko'proq** pul ketyapti, – dedi opam o'ziga o'zi gapirgandek [5,106].

3. Lena qo'lini zo'rg'a ko'tarib, “menga baribir” deganday **qisqa** va past tovushda “ah”, deb qo'ydi [5,219].

4. Bu mo'jizakor makon cho'li biyobonning naqd o'rtasida voqe' bo'lib, masjidga o'xshab qurilgan xonaqolar, katta-katta, keng va **uzun** ayvonlardan iborat edi [5,72]. Ushbu gaplarda ozroq va ko'proq, qisqa va uzun leksemalari antonimlikni hosil qilmoqda.

Antonimlar nutq jarayonida keng ishlatilib, rang-barang tushunchalarni ifodalash uchun qulay vositalardir. A.A. Reformatskiyning fikricha, ular kuchli, katta ahamiyatga ega bo'lgan stilistik vositalardir. Antonimlarni o'rinli ishlata bilish nutqning rang-barangligini, o'tkirligini, ifodaliligi va ta'sirchanligini oshiradi. So'zlarning sinonim va antonimlarini bilish, so'zlarning turli ma'nolarini aniqlashga yordam beradi [2,113].

Aytilishi (talaffuzi) bir-biriga o'xshash, ammo yozilishi va ma'nosi har xil bo'lgan so'zlar **paronimlar** deyiladi [4,95].

1. Fashistlar konslageridagi juhud **asirlardan** farqi qolmabdi [5,262].

2. O'rta **asr** Yevropasida inkvizisiya hukmi bilan go'zal ayollarni jodugarlikda ayblab, tiriklay yondirishgan [5,23].

3. U menga qiziqish bilan sinchkov **razm** solar, gohida peshonasidagi oq dog'larini yashirish uchun do'ppisini tepasidan bosib-bosib qo'yardi [5,156].

4. Bonujon, kitoblarni taxla desam, haliyam **rasmini** tomosha qilib o'tiribsanmi [5,185]? Ushbu gaplarda asir va asr, razm va rasm leksemalari paronimlikni hosil qilgan. Paronimlarda leksemalar tarkibidagi fonemalar miqdori teng bo'lishi ham (rasm va razm), teng bo'lmasligi ham (asir va asr) mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, leksikologiyaning asosiy vazifasi tilning lug'at boyligi bilan shug'ullanishdir. Shu bilan bir qatorda u so'zning o'z va ko'chma ma'nolarini, so'zlarning ma'no qirralarini ham o'rganadi. Nutqimizda ko'chma ma'noli so'zlarni, antonim, sinonimlardan to'g'ri foydalanish nutqning ta'sirchanligini, rang-barangligini, ifodaliligini oshirishga xizmat qiladi. Badiiy adabiyotda, she'riyatda ham bularning o'rni juda muhim hisoblanadi.

## References:

1. Abduazizov.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010. – 176 b.
2. Irisqulov.M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: “Yoshlar matbuoti”, 2009. – 263 b.
3. Xayrullayev.X. Eshboyeva.O. va Rahmatova.D. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'MM. – Samarqand, 2022. – 258 b.
4. Xolmanova.Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2007. – 177 b.
5. Iqbol Mirzo. Bonu. – Toshkent: “Factor books”, 2022. – 288 b